DOI

Turabaeva R.E.
Jizzax viloyati Arnasoy tuman kasb-hunar maktabi direktori

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA QISQA MUDDATLI KURSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Annotatsiya
Maqolada professional ta’lim muassasalari sohalar bo‘yicha (kasb-hunar maktabi, kollej va texnikum) tashkil qilinayotgan qisqa muddatli kurslarni tashkiliy, ilmiy va nazariy mexanizmlari tahlil qilinib berildi. Shuningdek, ta’lim muassasalar rahbarlarining menejmentlik qobiliyatlari ham ko‘rsatib berildi.
Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta’lim, professional ta’lim, kattalar ta’limi, qisqa muddatli kurslar, umri davomida ta’lim olish modeli.

Turabaeva R.E.
Director of Arnasoy district vocational school of Jizzakh region

EFFECTIVE WAYS OF ORGANIZING SHORT-TERM COURSES IN VOCATIONAL SCHOOLS

Annatation
In the article, the organizational, scientific and theoretical mechanisms of short-term courses organized by professional educational institutions (vocational school, college and technical school) were analyzed. The management skills of the heads of educational institutions were also demonstrated.
Key words: Continuing education, professional education, adult education, short-term courses, lifelong learning model.

Uzluksiz ta’lim nazariyasini konseptual holatlaridan farqli o‘laroq, kattalar ta’limi nazariyasi va amaliyoti asosida katta odam tabiatidan kelib chiqqan tamoyillar yotadi. Katta yoshdagi odam ehtiyoji sezmaguncha o‘qimaydi. U faqat o‘z fikriga ko‘ra zarur bo‘lgan narsalarni o‘rganadi va ish jarayonida qo‘llaydi. Boshqacha qilib aytganda yoshi katta odam ta’lim jarayonida, anig‘rog‘i bu jarayonning barcha parametrlari bo‘yicha aniq maqsadlar, mazmun va o‘qitishning tashkiliy shakllarini aniqlashda yetakchi rol o‘ynashga tayyor.

Zamonaviy mutaxassis tabiy-ilmiy va kasb-hunar bilimigagina emas, balki o‘zining ma’naviyati va madaniyatini belgilovchi gumanitar bilimlarga ham ega bo‘lishi darkor. Axloqiylikdan mahrum mutaxassis qabul qilinayotgan qarorlarning haqiqiy oqibatlari uchun o‘ziga ham, jamiyatga ham javob bera olmaydi.

https://wordlyknowledge.uz

Mamlakatimiz ta’lim tizimining maqsadi, vazifalari, jarayoni va natijasining tub farqi shunda. Yuqorida ta’kidlanganidek, kasb-hunar ta’limidan ko‘zlangan asosiy maqsad raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlash hamda raqobatbardosh ta’lim xizmati ko‘rsatishdan iborat.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlargacha bo‘lgan davrda, barcha darajadagi kadrlarni tayyorlash sifati past bo‘lganligi oqibatida, bu maqsad to‘liq bajarilmasdi.

O‘zbekiston Respublikadagi kasb-hunar bilim yurtlari asosan mehnat bozoriga nomiga malakasi past ikkinchi darajali ishchi kadrlarni tayyorlar edi. Ularni ishlab chiqarishda yuqori malakali qilib “yetishtirish” uchun ko‘p vaqt va mablag‘ talab etilardi.

Past sifatli mutaxassislarni tayyorlash, ayrim istisnolar bilan oliy ta’limga ham xos edi. Buning sababi ko‘p darajada:

Mutaxassislarni ommaviy chiqarish, respublika iqtisodiy va ijtimoiy hayotining asossiz ehtiyojlari, bu hol soxta lavozimlar nomenklaturasi ortishiga olib keldi. Bu omil oliy ma’lumotning nufuzi va uning sifat ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan talab pasayishini keltirib chiqardi;

Oliy ma’lumotli mutaxassislar mehnati natijalari ham miqdor, ham sifat jihatdan qadrsizlanishi. Yangi texnika va texnologiyani yaratadigan mutaxassis o‘zining ijodi natijalarini ro‘yobga chiqaradiganlardan kam maosh olardi. Ayni mahalda yuqori malakali mutaxassislarning ko‘pchiligi o‘rta bo‘g‘in mutaxassislariga xos kasbiy vazifalarni bajarishardi;

Mutaxassislar tayyorlash va ulardan foydalanishda raqobatchilik sharoiti yo‘qligi, bu hol ularning ta’limi sifatiga qo‘yiladigan talablar jiddiy pasayishiga olib keldi.

Mazkur sabablardan tashqari, tayyorlash jarayonida sifatni yaxshilash ko‘zda tutilmagan, bir xil darajadagi qat’iy cheklangan oliy ta’lim tizimi ham mutaxassislar tayyorlash sifatining pasayishiga olib keldi. Odatda, qancha qabul qilingan bo‘lsa, shuncha mutaxassis chiqarilardi (ozgina saralanish bundan mustasno), to‘g‘rirog‘i, shuncha oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplom berilardi. Bunda, odatda, raqobatbardosh potensial mutaxassislar barcha bitiruvchilarning 7—12 %dan oshmasdi.

Xo‘sh bu borada malakala mutaxassis tayyorlash uchun nima qilish kerak? Mutaxassisi tayyorlashda yuzaga kelgan muammolar, xususan, ta’limni qanday isloh qilish kerak degan kechiktirib bo‘lmas va o‘z o‘rnida mamlakat taraqqiyoti uchun o‘ziga xos “donor” vazifasini bajaradigan oliy ta’limni va uning tarkibiy qismi bo‘lgan professional ta’limni rivojlantirish uchun dastavval qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak degan mavhum va ayni paytda haqiqiy savol ko‘z oldimizga keladi. Jahon mehnat bozorida mutaxassislarning 60-65%ni o‘rta ma’lumotli mutaxassislar tashkil qilishini hisobga olsak bu borada albatta bizning davlatimiz uchun muhim bo‘lgan “professional ta’lim”ni isloh qilishi har qachongidan dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Ayni chog‘da oliy ma’umotli va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislarni

https://wordlyknowledge.uz

o‘z kasbi va lavozimi bo‘yicha qayta tayyorlashni yoki ularni malakasini oshirishni ham unitmaslik lozim. Bu borada bugungi kunda professional ta’lim tizimida mutaxassislarni (oliy va o‘rta maxsus) malakasini an’anaviy va noan’aviy usulda malaka oshirishga jalb qilish, shuningdek, 2020 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risi”dagi Qonunda ta’kidlab o‘tilganidek, ta’lim olishni (oliy ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirsh) masofadan turib (onlayn) olishni ham belgilab beruvchi normalarni qabul qilinishi ta’lim beruvchilar oldiga yanada ulkan ma’suliyatlarni yuklamoqda.

Biz, fikr yuritayotgan masala bu- kasb-hunar maktablarida qisqa muddatli kurslarni jalb qilish borasidagi fikr-mulohazalarimizni yana ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilishga undaydi. Jahonda bugun “umri davomida ta’lim olish”, “hayot davomida kasb o‘rganish” kabi modellar ishlab chiqilib amaliyotga kiritilgan, xususan, ta’lim muassasalarida kattalar ta’limi ham yo‘lga qo‘yilgan. Hatto shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki yoshi 40-50 ga kirganlar balki undan ham katta yoshdagilar bugun o‘z intelektini boyitish ustida ishlamoqda. Hunar, kasb va bilim olmoqda. Provardida kasb-hunar maktablarida ham yoshi kattalar uchun qisqa muddatli kasb va hunar o‘rgatadigan tarmoqlarni tashkil qilish (pullik asosida) va borada kasb-hunar maktablari o‘z jamg‘armasi uchun mablag‘ to‘plash imkoniyati berilsa ta’lim sohalari o‘rtasida o‘ziga xos raqobat muhiti shakllangan bo‘lar edi. O‘zingiz o‘ylang, 35-40 yoshlar oralig‘idagi fuqaro “temir payvandlash”, “temirchilik”, “kulolchilik” va boshqa shu kabi hunarlarni o‘rganmoqchi, buni uchun unga nazariy va amaliy bilimlarni mushtarak qilib beraoladigan dargoh kerak. Albatta kasb-hunar maktablari bu borada “qisqa muddatli kurslar”ni tashkil qilish o‘qitish davomiyligi 8 haftadan 14 haftaga oraliqda tashkil qilib samaradorligi aniq natijalarga yetaklaydigan bo‘lishi lozim.

Albatta bu ishlarni amalga oshirishda kasb-hunar maktab rahbaridan ulkan ilmiy va nazariy bilim va qobiliyat talab etailadi. Rahbar bu-menejment bo‘lishi kerak. Rahbar bu o‘quvchilar va kasb-hunar egallash istagida bo‘lgan fuqarolar uchun ta’limning ulkan “drayveri” bo‘lishi lozim. Menejment o‘zi nima keling biroz shu haqida fikr yuritaylik. Ayni chog‘da menejmentning vazifasiga quydagilar kiradi. Bular:

1. Rahbarlarga boshqaruv faoliyatini to‘g‘ri amalga oshirish.
2. Xodimlar faoliyatini samarali boshqarish va muvrfiqlashtirish.
3. Korxona yoki ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan maqsadlarga hamda ko‘zlangan natijalarga erishish.
4. Muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlar qabul qilish
5. Qarorlar bajaralishini nazorat va tahlil qilishni o‘rgatish.

Jahonning rivojlangan davlatlari, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasi barcha darajalardagi kadrlar tayyorlash sifati va ularning raqobatbardoshligiga:

- Ta’lim, fan va ishlab chiqarishning jips aloqasi;

https://wordlyknowledge.uz

- Ta’lim tashkilotlari tiplarining va fan, texnika, texnologiya hamda iqtisodiyotning eng so‘nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan kasb-hunar ta’limi dasturlarining xilma-xilligi;
- kasb-hunar ta’limi tizimini iqtisodiyotning ustuvor hamda daromad keltiradigan tarmog‘iga aylantirish;
- ta’lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv-uslubiy adabiyotlar hamda moddiy-texnika bazasi bilan ta’minlash;
- kasb-hunar ta’limi tizimiga yuqori malakali o‘qituvchilar va mutaxassislarni jalb etish;
- ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish;
- kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholashning ob’ektiv tizimini qo‘llash;
- aql-idrokning rivojlanishi, o‘lchanishi va baholanishi, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar muammosi, shuningdek, kasbga yo‘naltirish muammosi bo‘yicha psixologik-pedagogik tadqiqotlarni bajarish;
- o‘qituvchilarning moddiy va ijtimoiy jihatdan yuqori darajada himoyalanganligi tufayli ta’minlanadi.

Barcha darajadagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash strategiyasi negizida ularni tayyorlash sifatini uch asosiy bosqichda ta’minlashga majmuaviy yondashuv yotadi.

Har qaysi sohani samarali idora etish, avvalambor, boshqarish tamoyil va mezonlari, usul va uslublarining ilmiy asoslangani, qay darajada takomillashgani bilan belgilanadi. Shu bois ularning har birini tavsiflash, mohiyatini ifodalashga ehtiyoj tug‘iladi.

Tamoyil — biror bir sohada, jumladan, ta’lim sohasida ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan xulosalar, erishilgan natijalar.

Boshqarish usuli — boshqaruv sub’ektining (bizning holatimizda bu — kasb-hunar ta’lim boshqaruvi, muassasa rahbariyati va h.k.) muayyan maqsadlarga erishishni nazarda tutgan holda boshqaruv ob’ektiga (bizning holatimizda bu — professional ta’lim muassasasi, ta’limlanuvchilar va h.k.) ta’sir etish usul hamda vositalarining majmui.

Boshqarishning psixologik uslublari — bu shaxsning mustahkam psixologik xislatlari — diqqat, idrok, tafakkur, sezgi, ong orqali boshqarish uslublari majmui.

Bu tushunchalar o‘zaro bir-birlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bularning barchasi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda kuzatiladi.

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, boshqarish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari tatbiq etilib, ularga tayangan yondashuvlar qaror topmoqda.

Boshqarish usulining eng muhim belgilaridan biri uning ilmiy yondashuvga tayanishida namoyon bo‘ladi. Zero, bugun boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etmasdan uning izchilligi va samaradorligini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Albatta, rahbar shaxs muayyan sohani korxona yoki ta’lim muassasasini

https://wordlyknowledge.uz

samarali boshqarishi uchun avvalo, yetarli malaka va bilim, rahbarlik salohiyati, ko‘plab ma’naviy-axloqiy xislat va fazilatlar sohibi bo‘lishi darkor. Ta’lim sohasi, jumladan, professional ta’lim muassasalarini boshqarish ham bundan istisno emas.

Ushbu ta’lim muassasalardagi boshqaruv faoliyatida nazariy bilim va amaliy tajriba va ko‘nikmalarni o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash ta’lim-ta’lim bilan bog‘liq masalalarni talab darajasida hal etish, bu jarayonda foydalaniladigan usul va uslublarni uzluksiz takomillashtirib borish, umuman olganda, professional ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, kadrlarni tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish barobarida ularning rahbarlik salohiyati va ma’naviyatini yuksaltirish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Masalaning ana shu jihatiga e’tibor qaratib, birinchi Prezident Islom Karimov «Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik» asarida: «Kadrlar tanlashda — vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘usi bugun juda katta ahamiyatga egadir», deb ta’kidlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, kasb-hunar maktab direktorlari o‘z ta’lim muassasalarida davlat buyurtmasidan tashqari jamiyat buyurmasini bajarishi lozim. Buni biz yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, “qisqa muddatli kurslar”da kasb va hunarning turlarini o‘rgansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jamiyat taraqqiy etishi uchun albatta inson biron bir kasb yoki hunarni egallamog‘i lozim bo‘ladi. Bu borada kasb-hunar maktablari o‘quvchi va fuqarolar uchun ta’limning “lokomotivi” bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqining ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3 tom.. Toshkent, O‘zbekiston, NMIU, 2019 yil
2. Karimov I.A. “Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik” T.: “O‘zbekiston”, 1993 yil

WORDLY KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz